


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Andijon viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi 10409,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga oshdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shahri (14,1 % ga), Qo'g'ontepa (13,4 % ga), Andijon (7,9 % ga) va Paxtaobod (6,2 % ga) tumanlarida. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Baliqchi (98,7%ga), Oltinko'l (99,6 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (32,6 %), Shahrixon (14 %), Asaka (9,4%), Qo'rg'ontepa (8,7 %) va Andijon (5,6 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Aholi jon boshiga chakana
savdo tovar aylanmasi**

| | Ming so'm | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|--------------------------|---------------|---|
| Viloyat bo'yicha: | 3425,1 | 105,1 |
| Andijon sh. | 7862,3 | 112,6 |
| Qo'rg'ontepa t. | 4331,3 | 111,5 |
| Andijon t. | 2302,2 | 105,8 |
| Paxtaobod t. | 2379,0 | 104,3 |
| Jalaquduq t. | 2218,2 | 103,6 |
| Izboskan t. | 1943,9 | 103,1 |
| Xo'jaobod t. | 1867,6 | 102,7 |
| Buloqboshi t. | 2205,7 | 102,6 |
| Bo'z t. | 1839,8 | 102,1 |
| Marhamat t. | 1604,4 | 102,0 |
| Ulug'nor t. | 1626,3 | 99,1 |
| Xonobod sh. | 2067,8 | 98,7 |
| Shahrixon t. | 5059,5 | 98,4 |
| Asaka t. | 3081,1 | 98,4 |
| Oltinko'l t. | 1842,8 | 97,8 |
| Baliqchi t. | 2152,5 | 97,0 |




Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 5,1 % ga oshib, 3425,1 ming so‘mni tashkil etdi (2017 yil 2721,4 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Andijon shahri (7862,3 ming so‘m), Shahrixon (5059,5 ming so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (4331,3 ming so‘m) kuzatildi.

**2018-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo va umumiy
ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi**

| | Mln.so‘m | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------|--------------------|---|
| Viloyat bo‘yicha | 1 163 565,1 | 143,8 |
| Marhamat t. | 8 782,2 | 18,7 m |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 9 144,9 | 14,4 m |
| Baliqchi t. | 19 963,5 | 13,6 k |
| Bo‘z t. | 5 335,0 | 10,6 m |
| Asaka t. | 39 614,1 | 9,1 m |
| Andijon t. | 44 459,5 | 6,9 m |
| Jalaquduq t. | 6 718,3 | 6,8 m |
| Xonobod sh. | 4 762,9 | 5,8 m |
| Xo‘jaobod t. | 4 241,6 | 5,5 m |
| Oltinko‘l t. | 4 212,0 | 4,3 m |
| Shahrixon t. | 45 328,5 | 164,0 |
| Andijon sh. | 940 655,3 | 132,5 |
| Ulug‘nor t. | 323,4 | 124,3 |
| Buloqboshi t. | 310,1 | 96,5 |
| Paxtaobod t. | 13 733,2 | 90,1 |

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,9 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 6371,4 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning eng katta ulushi Buloqbooshi -88,7 %, Jalaquduq -88,9 %, Qo'rg'ontepa -87,8 %, Ulug'nor -86,1 % va Oltinko'1 -85,9 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahrida -63,0 % va Andijon tumanida -78,4 % qayd etildi.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar - dekabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1796,5 mlrd. soʻmni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 117,7 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan Shahrixon tumanida 97,9%ga kamayish kuzatildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 9,9 %ga oʻsdi va 962,3 mlrd. soʻmga etdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 53,6 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)






2018-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdoda yirik
korxonalar savdo aylanmasi


| | Mln.so‘m | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------|------------------|--|
| Viloyat bo‘yicha | 834 177,9 | 128,2 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 84 092,5 | 196,7 |
| Andijon sh. | 727 493,3 | 127,0 |
| Izboskan t. | 4 707,6 | 113,0 |
| Oltinko‘l t. | 329,0 | 102,2 |
| Andijon t. | 122,8 | 77,7 |
| Xo‘jaobod t. | 360,2 | 68,4 |
| Jalaquduq t. | 236,4 | 62,5 |
| Marhamat t. | 186,0 | 62,3 |
| Ulug‘nor t. | 136,0 | 59,5 |
| Shahrixon t. | 15 944,9 | 56,5 |
| Buloqboshi t. | 132,8 | 55,2 |
| Paxtaobod t. | 210,1 | 50,3 |
| Baliqchi t. | 184,1 | 47,7 |
| Xonobod sh. | 42,1 | 0 |
| Bo‘z t. | - | - |

2018-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo aylanmasining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan yirik korxonalar Qo‘rg‘ontepa tumani (196,7%), Andijon shahar (127,0%), Izboskan tumani (113,0%)ni tashkil etdi. Faqatgina Bo‘z tumanida ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi yirik korxonalar mavjud emas


2018-yilning 2-yarim yilligi davomida yirik korxonalar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmalari hajmining 2017-yil tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, foizda



2018-yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonalar va mikrofirmalarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2018 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2018-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon shahar (4988,2 mln.so‘m) va Andijon tumanida (4654,9 mln.so‘m)larda mavjud bo‘lib jami o‘tgan yilga nisbatan 76,1 % ni tashkil etdi.

**Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi” bo‘limi**

Tel.: (71) 230 – 82 – 53